

**DAVLATIMIZDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI SOHASIDA  
AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR**

*Qurbonov Sarvar Rustam o`g`li*

*O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi*

*Akademiyasi 3-o`quv kursi kursanti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ichki ishlar organlari faoliyatida amalga oshirilayotgan islohotlar, ular faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan amaliy ishlar, ichki ishlar organlarining oldingi va bugungi qiyofasi to`g`risida so`z yuritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *Ommaviy va xususiy huquq, xalqchil tuzilma, sun`iy intellekt, raqamli texnologiya, “militsiya”.*

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o`zining davlatimiz rahbari sifatidagi faoliyatini boshlaganlaridan so`ng, eng dastlabki amalga oshirgan islohotlaridan biri bu ichki ishlar organlari sohasida amalga oshirgan keng ko`lamli ishlari bo`ldi. Barcha huquqni muhofaza qilish idoralari kabi O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning tizimlari ham qayta tashkil etildi. Mustaqillik davridan to bugunga qadar ichki ishlar organlarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida soha uchun professional kadrlar tayyorlash bo`yicha samarali tizim yaratildi. Ta`kidlash o`rinliki, mamlakatimizning ichki ishlar organlari qiyofasi sobiq Ittifoq tuzumida faoliyat yuritgan “Militsiya” shakliga nisbatan tubdan o`zgardi va xalqimizga xolis xizmat qiluvchi tuzilmaga tobora aylanib bormoqda. Bugun ichki ishlar organlari sohasiga raqamli texnologiyalar, xorijiy mamlakatlarning ilg`or tajribalariga asoslangan zamonaviy ish yuritish vositalari, sun`iy intellekt yordamida faoliyat ko`rsatadigan axborot-ma`lumot tizimlari jadal tatbiq etilib, zamonaviy samarali tizimga aylanib bormoqda. Jamoat joylarida vaziyatni onlayn kuzatish, fuqarolarning murojaatlarini masofadan turib qabul qilish, huquqbuzarliklarni inson omili ishtirokisiz qayd etish amaliyoti ichki ishlar

organlari o‘z faoliyatini yanada samarali amalga oshirishga muhim hissa qo‘shmoqda. Yuqoridagilar bilan bir qatorda, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biroq ochiq tan olish kerak, ushbu idoralar hali xalqchil tuzilmaga, fuqarolarning chinakam himoyachisiga aylangani yo‘q” [1]. Shu sababli, ichki ishlar organlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, ayniqsa ichki ishlar organlarida xizmat o‘tash tartibini zamon talablariga moslashtirish va takomillashtirish zarur. Zero, ichki ishlar organlarini xalqchil tuzilmaga aylantirish xodimlarning xizmatni o‘tash tartibini huquqiy jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplariga uyg‘unligi, ularning xizmat o‘tash huquqlari ta’minlanishining va xizmat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi **O‘RQ-407**-son qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi **PQ-3413**-son qarori bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tash tartibini huquqiy jihatdan tartibga solgan asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ma’lumki, ichki ishlar organlaridagi xizmat davlat xizmatining turi bo‘lib, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo‘yicha vazifalarni amalga oshirishdan iborat. Shuningdek mazkur qonunda ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, sog‘lig‘ini saqlash, mehnatiga haq to‘lash, uy-joy bilan ta’minlash, mol-mulkiga yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash, xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida transport vositalaridan imtiyozli foydalanish, davlat pensiya ta’minoti, davlat sug‘urtasi, ijtimoiy yordam ko‘rsatish shakllari orqali ta’minlanishi belgilab qo‘yildi.

Xulosa o‘rnida olib borilgan ko‘pgina ilmiy tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, ichki ishlar organlarida xizmat o‘tash bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishda ommaviy va xususiy huquqning amal qilishi ko‘p

hollarda mazkur munosabatlarga nisbatan huquqni to'g'ri qo'llash masalasini anchagina qiyinlashtiradi. Ammo har qanday holatda ham ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'yilmaslik prinsipiga amal qilish kerak. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ichki ishlar organlari sohasida olib borilayotgan tizimli islohotlar xalqimizning tinch va osoyishtaligini hamda erkin, farovon turmush tarzi kechirishini ta'minlashga qaratilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. «Bu idoralar xalqchil emas» — Prezident ichki ishlar organlari haqida URL: <https://kun.uz/news/2020/01/24/bu-idoralar-xalqchil-emas-prezident-ichki-ishlar-organlari-haqida>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlarida xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi nizom / URL: <https://lex.uz/uz/docs/3430641#3453354>.
9. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son qonuni // URL: <https://lex.uz/acts/3027843>.